Bundan tashqari, *ilmiy manbalarni tahlil qilish* metodi asosida mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, monografiyalari, maqolalari hamda xalqaro hisobotlar o'rganildi. Ushbu metod ekspertiza institutining nazariy asoslarini chuqurroq yoritishga xizmat qildi. Shuningdek, tadqiqotda *induksiya va deduksiya* metodlari qo'llanib, alohida huquqiy tizimlar tajribasidan umumiy xulosalar chiqarildi hamda mavjud nazariy qarashlar asosida muayyan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Mazkur metodlar majmuasi jinoyat protsessida ekspertiza institutining samaradorligini baholash, afzallik va kamchiliklarini aniqlash hamda uni takomillashtirishning optimal yo'llarini ishlab chiqishga imkon berdi.

**Natijalar**

O'tkazilgan qiyosiy-huquqiy tahlil natijasida jinoyat protsessida ekspertiza institutiga nisbatan turli huquqiy tizimlarda shakllangan yondashuvlar o'rtasida sezilarli farqlar mavjudligi aniqlandi.

Birinchidan, anglo-sakson huquq tizimida amal qiluvchi tortishuvli ekspertiza (adversarial expertise) modelining asosiy xususiyati taraflarning ekspertni mustaqil ravishda jalb qilish huquqiga egaligidir. Ushbu model ekspert xulosalarining qarama-qarshi tarzda taqdim etilishi orqali sudda ilmiy bahsni shakllantirish va xulosalarning ishonchliligini tekshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, tahlillar ushbu tizimda ekspertlarning tarafkashligi hamda qarama-qarshi xulosalarning sud tomonidan baholanishidagi murakkabliklar mavjudligini ko'rsatdi.

Ikkinchidan, kontinent huquq tizimiga xos bo'lgan rasmiy ekspertiza modeli ekspertiza tayinlash vakolatining davlat organlariga tegishli ekanligi bilan ajralib turadi. Mazkur modelda ekspertlarning nisbatan neytralligi ta'minlanadi, biroq amaliyotda yagona ekspert xulosasining yuqori darajada ustuvor ahamiyat kasb etishi va taraflarning unga ta'sir qilish imkoniyatining cheklanganligi aniqlanadi.

Uchinchidan, zamonaviy huquqiy tizimlarda ekspertiza institutining rivojlanish tendensiyasi sifatida aralash (gibrid) modellar shakllanayotgani kuzatildi. Jumladan, Avstraliyada "concurrent evidence" instituti orqali ekspertlar o'rtasidagi bevosita ilmiy muloqotni ta'minlash, Fransiyada esa taraflar ishtirokini kengaytirishga qaratilgan plural va nazorat ostidagi ekspertiza elementlarini joriy etish amaliyoti mavjud.

To'rtinchidan, postsovet huquqiy tizimlari, jumladan, O'zbekiston jinoyat protsessida kontinent modelining ustuvorligi saqlanib qolgan bo'lsa-da, unda taraflar, ayniqsa, himoya tomonining ekspertiza jarayonidagi real ishtiroki cheklanganligi aniqlandi. Bu esa ayblanuvchining protsessual imkoniyatlari bilan bog'liq muvozanatning buzilishiga olib kelishi mumkin.

Beshinchidan, tadqiqot natijalari nazorat ostidagi ekspertiza (controlled expertise) modelini joriy etish kontinent tizimining asosiy xususiyatlarini saqlagan holda uning samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatdi. Ushbu model doirasida himoya tomonga mutaxassis jalb qilish, ekspert faoliyatini kuzatish va muqobil professional fikr bildirish imkoniyati yaratiladi. Natijada ekspert xulosalarining ilmiy asoslanganligi va ishonchliligi oshadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, jinoyat protsessida ekspertiza institutining samaradorligini oshirish uchun biror tizimni toʻliq koʻchirish emas, balki mavjud kontinent modelini takomillashtirish, xususan, himoya tomonning protsessual huquqlarini kengaytirish orqali muvozanatli yondashuvni joriy etish maqsadga muvofiq.

**Muhokama**

“Ilmiy adabiyotlarda turli jinoyat protsessual institutlarini tahlil qilishda odatda anglo-sakson va kontinent yondashuvlarni solishtirish odat tusiga kirgan” (Golovko, 2009). Har bir jinoyat sudlov tizimi oʻz ishtirokchilari oʻrtasidagi munosabatlarni, ekspertiza tayinlanishi va oʻtkazilishi bilan bogʻliq jihatlarda maxsus tartib bilan belgilanishi bilan xarakterlanadi. Ekspertizani tayinlovchi shaxs (tor ma’noda) yoki isbotlovchi subyekt (keng ma’noda) kim ekanligiga qarab, rossiyalik va xorijiy olimlar quyidagi turlarga ajratadi: “Sostyazatel (adversarial) ekspertizasi (yoki expert witnesses tizimi) ayniqsa, AQSH, Buyuk Britaniya, Janubiy Afrika Respublikasida mavjud.

Kontinent (continental) ekspertiza (rasmiy ekspertlar tizimi), Fransiya, Niderlandiya, Germaniya va boshqa davlatlarda keng qoʻllanadi” (Golovko, 2009). Tortishuv ekspertizasi (adversarial) ekspertiza holatida himoya tomoni mustaqil ravishda ekspertni jalb qilish va uning xulosasini ma’lum ish boʻyicha dalil sifatida taqdim etish huquqiga ega, shuningdek ayblovchi tomonidan vakolatli davlat vakili oʻz tashabbusi bilan ekspertizani tayinlash imkoniyatiga ega.

Kontinent (continental) ekspertiza esa shuni nazarda tutadi: ekspertizani tayinlash huquqi davlat vakolatli vakiliga tegishli boʻlib, u tergov davomida jinoyat ishi bilan bogʻliq barcha holatlarni aniqlaydi, shuningdek sud ham ekspertizani tayinlashi mumkin. “Keltirilgan klassifikatsiya anglo-sakson va kontinent jinoyat protsesslari turlarida isbotlash masalalari boʻyicha asosiy farqlarni ta’kidlaydi. Shunga qaramay, shuni hisobga olish kerakki, ekspertiza instituti koʻplab davlatlarda dinamik ravishda rivojlanmoqda, shu jumladan jinoyat sudlovining tegishli turiga xos boʻlmagan yoʻllar bilan ham” (Downes, 2005). “Hozirgi vaqtda anglo-sakson turidagi jinoyat protsessi amal qiladigan mamlakatlarda sud adolat manfaatlaridan kelib chiqib, maxsus masalani hal etish uchun oʻz tashabbusi bilan ekspertni chaqirish huquqiga ega” (Federal Rules of Evidence, Fed. R. Evid. 706(a), 2011). “Biroq Angliya va Uelsda ekspertiza huquqiy tartibga solinishini oʻrganuvchi olimlar ta’kidlashicha, mazkur norma amaliyotda kamdan kam qoʻllanadi. Chunki protsessda tortishuv (sostyazatelnost) prinsipi mavjud hamda sud tomonidan ekspertni jalb etishning tegishli mexanizmi yoʻq” (Law Commission, 2011). Shu bilan birga, soʻnggi vaqtlarda Angliya va Uelsda jinoyat protsessida ekspert xulosasining ishonchliligini aniqlashda sud rolini kuchaytirishga qaratilgan loyihalar ishlab chiqilmoqda. Xususan, “Huquq komissiyasining fikricha, istisno holatlarda sudga taqdim etilgan xulosalarning ilmiy asoslanganligini aniqlashda yordam berish uchun oʻz xulosasini tuzadigan ekspertni tayinlash imkoniyati berilishi zarur. Tayinlangan ekspertning xulosasi, boshqa har qanday dalil kabi sud uchun majburiy hisoblanmasligi lozim. Sud tomonidan ekspertni tanlashni ta’minlash maqsadida ishlab chiquvchilar *ad hoc* (muayyan holat uchun) nodavlat, mustaqil yuristlar hay’atini chaqirishni taklif etgan. Ushbu hay’at Huquqiy hamjamiyat, Barristerlar kengashi va Adliya vazirligi tomonidan shakllantirilib, okrug sudi sudyasi boshchiligida faoliyat yuritadi hamda uning vazifasiga ish boʻyicha zarur boʻlgan maxsus bilimlar sohasida malakali ekspertlar roʻyxatini tuzish kiradi. Aynan sud koʻrsatilgan roʻyxatdan ekspertni tanlashi lozim. Biroq agar taraflar ushbu roʻyxatdan bitta ekspertni tanlashga kelishib olsalar, sud ularning tanloviga rozi boʻlish huquqiga ega” (Law Commission, 2011).

Avstraliya ekspertiza institutini takomillashtirishda boshqa yoʻlni tanladi, chunki tadqiqotchilar fikricha, “sudga ekspertlarni tayinlash huquqini kengaytirish tendensiyasi anglo-sakson tizimining asosiy afzalliklarini yemirishi mumkin. Ushbu afzalliklar sudga haqiqatni aniqlash uchun muqobil fikrlar taqdim etilishini nazarda tutadi” (Law Commission, 2011). Tub (keskin) islohotlarga qarshi boʻlganlar sudning har qanday dalillar mazmunidagi qarama-qarshiliklarga duch kelishi va ularni hal etishga urinishida hech qanday salbiy holat koʻrmaydilar, chunki tortishuv prinsipi taraflar oʻrtasidagi qarama-qarshilikni nazarda tutadi.

Shu munosabat bilan huquqshunoslarda savol (hayrat) tugʻiladi: nega qonun chiqaruvchilar faqat ekspertiza institutini oʻzgartirishni istaydi, holbuki boshqa dalillar ham qarama-qarshi boʻlishi

mumkin? "Masalan, hozirgi vaqtda Avstraliyada "concurrent evidence" (yoki "hot tubbing") instituti keng muhokama qilinmoqda. U 1985-yildan boshlab fuqarolik protsessi doirasida qoʻllanila boshlagan" (Rares, 2010).

"2012-yildan boshlab ushbu institutning jinoyat ishlaridagi sud jarayonlarida aniq namoyon boʻlishiga misollar paydo boʻla boshladi. Ushbu institutni joriy etishning maqsadlari quyidagilar edi: ekspertlarga oʻz fikrini toʻliq ifodalash va bir-birlarining qarashlarini erkin sharhlash huquqini berish, ularning birgalikda turli pozitsiyalarni muhokama qilish jarayonida qarama-qarshilik darajasini kamaytirish, sudyaga xulosalarni baholashda yordam berish, ekspertlarga manfaatdor taraflar taʼsirini kamaytirish, sud jarayonining vaqt doirasini cheklash va kros-soʻroqning baʼzi salbiy jihatlarini bartaraf etish" (Edmond, 2010).

Ushbu institut ikki bosqichda amalga oshiriladi. Avvalo, har tarafning ekspertlari, oʻz tadqiqotlarini olib borgan holda, sudning koʻrsatmasi bilan suddan oldingi tartibda bir joyga toʻplanib, umumiy xulosani tuzishlari lozim. Ushbu xulosada ular oʻrtasida qarama-qarshilik tugʻdiradigan va tugʻdirmaydigan savollar roʻyxati keltiriladi. Keyin sud jarayonida ular birga oʻtirib, navbatma-navbat oʻz xulosalarini bayon etishlari, shu bilan birga, bir-birlarining fikrlarini sharhlash va savollar berish huquqiga ega boʻladi.

Faqat shundan keyingina ular kros-soʻroqqa olinadi va baʼzi tadqiqotchilarning fikricha, kros-soʻroq oʻz-oʻzidan ekspertning fikrini aniqlay olmaydi, balki faqat uni chalgʻitishga va noaniq savollardan ekspertni noqulay holatga solishga imkon beradi (Meintjes-van der Walt, 2001). "Biroq shunday nuqtayi nazar ham mavjudki, "concurrent evidence" institutining koʻplab afzalliklari ortiqcha baholangan, chunki ekspertlarning baʼzi savollar boʻyicha kelishuvga erishishi ularning xulosalarining ishonchliligini kafolatlamaydi" (Edmond, 2010).

Fransiyada kontinent turidagi jinoyat protsessining asosiy vakillaridan biri sifatida ekspertiza instituti ham barqaror deyish qiyin. Masalan, "1808-yildagi Napoleon jinoyat tergov kodeksi, 1958-yilda Fransiya Jinoyat-protsessual kodeksi (UPK Fransiya 1958) kuchga kirguncha oʻzgarishlar bilan amal qilgan, ekspertiza masalasini tartibga solmagan. Bu esa notoʻgʻri hukmlar chiqarilishiga olib kelgan" (Rassat, 1993). Shu munosabat bilan, ushbu sohada qonunchilikni takomillashtirish masalasi boʻyicha muhokama yuzaga keldi.

Turli reformalash yoʻllari taklif qilindi, ular kontinent ekspertizasi doirasiga sigʻadi. "Birinchi guruh olimlar amaliyotda shakllangan tortishuvsiz ekspertizani (non adversarial expertise) saqlab qolish va faqat sudning ekspertlarning taʼlim darajasi yoki ekspertiza oʻtkazish muddatlari boʻyicha ixtiyorini cheklash zarur, deb hisoblashardi" (Rassat, 1993). "Ikkinchi guruh tadqiqotchilar koʻplab ekspertlarning ishtirokini nazarda tutuvchi ekspertizani (plural expertise) taklif qilgan" (Rassat, 1993).

Ushbu variantda sud bir nechta ekspertlarni chaqirishga majbur qilinar edi va ularning soni cheklanmagan. Qonun ishlab chiquvchilar sudga alohida yoki birgalikdagi tadqiqotlar oʻtkazish zarurmi, shuni hal qilish huquqini ham saqlashni muhim deb hisoblashgan. Dastlab, 1958-yildagi Fransiya JPK qonun chiqaruvchi organ tomonidan ushbu variant tasdiqlandi, keyin 1985-yilda unga oʻzgartirishlar kiritildi. Ularga koʻra zarurat tugʻilganda sud faqat bitta ekspertni tanlashi shart, lekin ixtiyoriy ravishda boshqa ekspertlarni ham chaqirish huquqiga ega. Biroq taraflarga yagona ekspertni chaqirish qaroriga shikoyat qilish huquqi berilgan edi.

Uchinchi guruh olimlar nazorat ostidagi ekspertizani (controlled expertise) taklif qilgan. Ushbu yondashuv sudga faqat bitta ekspertni tayinlash imkoniyatini nazarda tutardi, soʻngra himoya tomonga birinchi ekspert faoliyatini nazorat qila oladigan ekspertni tanlash taklif qilinar edi. Baʼzi huquqshunoslar "nazoratchi"ga tayinlangan ekspertga keyingi tadqiqotlarni oʻtkazish boʻyicha fikr aytish huquqini berish lozim, deb hisoblashgan. "Boshqalar esa himoya tomon tanlagan ekspert faqat maxsus xulosada oʻz izohlarini qoldirishi kerak, deb hisoblagan. Kontinent ekspertizasiga qarama-qarshi tarzda tortishuvli ekspertizani (adversarial expertise) joriy etish taklif qilindi" (Rassat, 1993).

Loyihada sud tomonidan bir taraf, himoya tomondan esa boshqa ekspertlarni tayinlash koʻzda tutilgan edi. Shu bilan birga, ikki alternativ koʻrib chiqilgan: birinchi nuqtayi nazarga koʻra ekspertlar alohida tadqiqot olib borib, sudga taqdim etish uchun alohida xulosalar yozishi mumkin; ikkinchi nuqtayi nazarga koʻra ular juftlikda eks-

pertiza oʻtkazib, yagona xulosani tuzishi mumkin edi, zarur boʻlsa, alohida (maxsus) fikr bilan. Dastlab qonun chiqaruvchilar tortishuvli ekspertizaning birinchi variantini qabul qilishdi, ammo u 1958-yilda Fransiya JPK kuchga kirishidan oldin bekor qilindi.

“1990-yilda Fransiyada Jinoyat adolati va inson huquqlari boʻyicha komissiya taraflarga ekspertni tanlashda ishtirok etish huquqini berishni taklif qilgan, ammo oxir-oqibat eski “sud ekspert” instituti saqlab qolinadi” (Spencer, 2004).

1958-yilgi Fransiya JPKning (oʻzgartirishlar va qoʻshimchalar bilan) 156-moddasiga asosan “sud hokimiyati vakillari texnik masala yuzaga kelganda, prokuror, taraflar iltimosiga binoan yoki oʻz tashabbusi bilan ekspertizani tayinlash huquqiga ega. Shuningdek, adabiyotlarda politsiya ham ekspertlarni tayinlashi mumkinligi qayd etiladi” (Rassat, 1993).

Fransiya JPKning 159-moddasiga binoan, zarurat tugʻilganda sud bir nechta ekspertlarni chaqirish huquqiga ega. Ekspertlar Kassatsiya sudi tomonidan tuzilgan milliy jismoniy yoki yuridik shaxslar reyestridan yoki apellyatsiya sudlari tomonidan tuzilgan reyestrlardan tanlanadi. “Fransiya JPKning 156-moddasiga koʻra, istisno holatlarda asosli qarorga binoan sud ekspertlarni reyestrlardan emas, balki boshqa manbalardan tanlash huquqiga ega. Bunday vaziyat, masalan, tor soha boʻyicha malakali mutaxassis topilmaganda yoki ekspertning shoshilinch ishtiroki zarur boʻlganda va reyestrda koʻrsatilganlarni topib boʻlmagan hollarda yuzaga kelishi mumkin” (Rassat, 1993, p. 60).

Amaldagi Fransiya JPKda taraf himoyasiga ekspertiza sohasida maʼlum huquqlarni ham taqdim etadi. Masalan, “Fransiya JPKning 161-1-moddasiga binoan, ekspertiza tayinlanganda himoya tomoni ekspertga oʻz savollarini taklif qilish yoki reyestrdan tanlagan boshqa ekspertlarning ishtirokini soʻrash huquqiga ega; ular tayinlangan ekspert bilan birgalikda tadqiqot olib boradi (biroq bu huquq cheklanishi mumkin). Fransiya JPKning 165-moddasiga muvofiq, himoya tomoni suddan ekspertga maʼlum tadqiqotlarni oʻtkazish boʻyicha koʻrsatma berishni yoki ekspertga maxsus bilim sohasida maʼlumot bera oladigan shaxsni tayinlashni soʻrash huquqiga ega. Bundan tashqari, sud majlisiga himoya tomon tashabbusi bilan ekspert xulosasini rad etishga qodir boʻlgan maxsus bilimga ega shaxs taklif qilinishi mumkin” (Republic of France, 2006). Bunday hollarda sud qoʻshimcha yoki takroriy ekspertizani oʻtkazish choralarini koʻrishga haqli. Adabiyotlarda qayd etilishicha, “Fransiyada firibgarlik ishlarida tortishuvli ekspertiza (adversarial expertise) koʻzda tutilgan” (Pradel, 2008). “Ammo shunday hollarda ham ikkala ekspertni tergov sudyasi yoki prokuror tayinlaydi: birini oʻz tashabbusi bilan, ikkinchisini esa javobgarlikka tortilgan shaxsning tanlovi boʻyicha” (Republic of France, 2006). Shunday qilib, tortishuv elementlari asta-sekin Fransiya jinoyat protsessiga kirib bormoqda, ammo u hanuzgacha oʻziga xos kontinent xususiyatlarni saqlab qolmoqda, jumladan, ekspertiza instituti doirasida ham. Chet el adabiyotlarida qayd etilishicha, ekspertiza institutiga boʻlgan har bir yondashuvning oʻz afzallik va kamchiliklari mavjud.

Tortishuvli ekspertizaning afzalliklari haqida fikr yuritar ekan, M. Redmeyn ekspertlar oʻrtasidagi qarama-qarshilik sudni taqdim etilgan xulosalarni chuqur va batafsil tahlil qilishga undashini taʼkidlaydi. Uning fikricha, tortishuv tamoyiliga asoslangan ekspertiza ilmiy bilimlarning rivojlanishiga ham xizmat qilishi mumkin. Bunga DNK-tahlili misol boʻla oladi, chunki aynan himoya tomon tashabbusi bilan ushbu metodikaning ishonchliligi yuzasidan yuqori malakali ilmiy munozaralar yuzaga kelgan. Bundan tashqari, M. Redmeyn ayrim hollarda ekspertning maʼlum darajadagi tarafkashligi ham ijobiy natija berishi mumkinligini qayd etadi. Chunki ekspert oʻzini jalb qilgan taraf pozitsiyasini qoʻllab-quvvatlovchi maʼlumotlarni chuqurroq tahlil qilish imkoniyatiga ega boʻladi (Spencer, 2004).

Shu bilan birga, “tortishuvli ekspertiza uzoq vaqtdan beri chet el huquqshunoslari tomonidan tanqidga uchragan. Uning asosiy kamchiliklari sifatida ekspertlarning betaraf emasligi va taraflar tomonidan chaqirilgan ekspertlarning qarama-qarshi xulosalarini sud uchun baholash qiyinligi tan olinadi” (Meintjes-van der Walt, 2001). Olimlar shuni taʼkidlaydiki, “tortishuvli ekspertiza mavjud boʻlganda taraflar ekspertni jalb qilishda “bozor yondashuvi”ni tanlaydilar, yaʼni oʻsha tarafga qulayroq qaror qabul qiladigan mutaxassisni izlashadi va koʻpincha bir masala boʻyicha fikrlar farqini ortiqcha baholaydilar” (Redmayne, 2001).

Kontinent ekspertizasining afzalliklariga to'xtalib, L. Mayntyes-Van der Valt sudyaga tayanib, shunday fikrni keltiradi: "agar sud majlisida olimlar tomonidan yakuniy javob topilgan ilmiy masala ko'tarilsa, sudyaga ushbu sohada turli ekspertlarning bir nechta nuqtayi nazarini bilishi shart emas". Neytral ekspert instituti foydasiga keltiriladigan boshqa dalillar sifatida vaqt va moddiy resurslarni tejash hamda imkoniyatlari teng bo'lmagan taraflar o'rtasidagi bahs muammosini yengib o'tish ko'rsatiladi (Meintjes-van der Walt, 2001).

Shu bilan birga, "kontinent ekspertiza bir nechta sabablar bo'yicha tanqid qilinadi. Birinchidan, sud tomonidan tayinlangan yagona ekspertning fikri amaliyotda katta ahamiyatga ega bo'lishi mumkin va shuning uchun taraflar uni rad etishda qiynaladi" (Volk, 1993). Yevropa Inson Huquqlari Sudi ham shunga o'xshash pozitsiyani qo'llaydi.

Ikkinchidan, manfaatdor bo'lmagan ekspert o'z ishini sifatli bajarmasligi mumkin.

Uchinchidan, yagona ekspert chaqirilganda, ushbu mutaxassis ilmiy jamoatchilik tomonidan tan olinmagan fikrni bildirishi yoki mutaxassis sifatida yetarli obro'ga ega bo'lmasligi mumkin.

To'rtinchidan, mazkur ekspertiza tarafkashlik turining o'zgarishiga olib kelishi mumkin: bir tarafga sodiqlikdan o'z nazariyasiga sodiqlikka o'tish. Bu esa faktlarni aniqlovchi organlar uchun zararli bo'lishi mumkin, chunki bunday holatda manfaatdorlik kamroq seziladi.

Jinoyat protsessida ekspertiza institutiga qaysi yondashuv ma'qul? Inqilobdan oldingi rus huquqshunos-protsessualisti L.E. Vladimirov mahalliy va xorijiy qonunchilikni tahlil qilgan holda Rossiyada ekspertizani tayinlash va o'tkazishni huquqiy tartibga solish mukammal emasligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, rasmiy ekspertlar ustidan ayblanuvchi tomonidan nazorat yetarli emas edi va ekspertlarni tanlash zarur kafolatlar bilan ta'minlanmagan (Vladimirov, 1910).

Ushbu holatlarni hisobga olgan holda, L.E. Vladimirov qonun chiqaruvchilarga Fransiya tomonidan taklif qilingan nazorat ostidagi ekspertiza loyihasini e'tiborga olishni tavsiya qilgan. Mazkur loyiha sudlar tomonidan ekspertlar reyestrini tuzishni va ayblanuvchiga ushbu reyestrdan shaxsni tanlash imkoniyatini berishni nazarda tutadi. "Tanlangan shaxs dastlabki tergovda rasmiy tayinlangan ekspertlarning barcha harakatlarida ishtirok etish, ularga o'z e'tirozlarini bildirishi va ularni protokolga kiritish yoki og'zaki taqdim etish huquqiga ega" (Vladimirov, 1910). Uning fikricha, ushbu variant ekspertizaning bir tomonlama bo'lishiga qarshi kurashish imkonini beradi.

Yangi jinoyat-protsessual qonunchilikni qabul qilishda ayrim sobiq sovet davlatlari ma'lum darajada MDH ishtirokchi davlatlari uchun mo'ljallangan Model jinoyat-protsessual kodeksining (keyinchalik MJPK) tavsiyaviy normalarini qabul qilganlar. Ushbu normalar ayblanuvchi yoki gumonlanuvchiga o'z tashabbusi va o'z hisobidan alternativ ekspertiza o'tkazish hamda ekspert xulosasini jinoyat ishiga dalil sifatida qo'shishni talab qilish huquqini nazarda tutadi (MJPK, 289-modda 1-qism 4-bandi).

Hozirgi vaqtda tortishuv sharoitida ekspertiza o'tkazish masalasi doktrinada dolzarbligicha qolmoqda. Ko'plab olimlar shunday fikrni ilgari suradilar: "ekspertlarning tortishuvli ishtiroki, buning uchun esa himoya tomonga sud ekspertizasini tayinlash huquqini berish, ekspert xulosasining ilmiy asoslanganligi va ishonchliligini tekshirishning yagona mumkin bo'lgan yo'li hisoblanadi" (Rossinskaya & Galyashina, 2011).

M. Redmeynning fikricha, barcha turdagi jinoyat sud yurituvlari nisbatan moslashuvchan bo'lib, ularni tub o'zgarishlarsiz ham takomillashtirish mumkin. O'zbekistonda an'anaviy aralash turdagi jinoyat protsessi shakllangan bo'lib, u, xususan, sudgacha bo'lgan bosqichda tortishuv prinsipining to'liq amalga oshirilishini nazarda tutmaydi hamda himoya tomonga jinoyat ishi bo'yicha dalillarni mustaqil yig'ish huquqini bermaydi. Anglo-sakson ekspertizasi modelining joriy etilishi O'zbekiston jinoyat-protsessual dalillar tizimining kontinent asoslarini zaiflashtirishi mumkin. Shu munosabat bilan tabiiy savol tug'iladi: qonun chiqaruvchi organ qanday asosga ko'ra himoya tomonga ekspertiza instituti doirasida dalillarni yig'ish imkoniyatini berib, boshqa turdagi dalillarni yig'ish huquqidan mahrum qilishi mumkin?

O'zbekiston jinoyat protsessining an'analari, shuningdek, turli huquqiy tizimlarda mavjud ekspertiza institutiga oid yondashuvlarning yuqorida tahlil qilingan afzallik va kamchiliklarini hisobga olgan, ushbu institutni uning kontinent xususiyatlarini saqlab qolgan holda hamda himoya tomonga qo'shimcha huquqlar berish orqali takomillashtirish zarur, deb hisoblaymiz. Bizning nazarimizda,

L.E. Vladimirovning nazorat ostidagi ekspertizani joriy etish tarafdori boʻlgan pozitsiyasi alohida e’tiborga loyiq.

Shuningdek, ekspert tomonidan tadqiqot oʻtkazilishi jarayonida mutaxassisga ekspertga tavsiyalar berish va izohlar kiritish huquqi berilishi lozim. Biroq ushbu tavsiya va izohlar ekspert tomonidan faqat uning ichki ishonchi va kasbiy bahosiga koʻra hisobga olinishi mumkin. Chunki ekspert mustaqillik va protsessual mustaqillik tamoyillari asosida faoliyat yuritadi. Ekspertiza yakunida mutaxassis tadqiqotning toʻgʻriligi va sifati, qoʻllangan metodikalarning ishonchliligi hamda boshqa tegishli masalalar yuzasidan oʻz pozitsiyasini yozma shaklda bayon etishi maqsadga muvofiq.

Bizning fikrimizcha, nazorat ostidagi ekspertiza instituti ayblanuvchining mavjud noqulay protsessual holatini bartaraf etishga xizmat qiladi. Chunki de jure u ekspertiza jarayonida ishtirok etish huquqiga ega boʻlsa-da, de facto ushbu huquqning mazmuni cheklangan, sababi ayblanuvchi odatda maxsus bilimlarga ega boʻlmaydi. Shu bilan birga, ikkinchi professional fikrning mavjudligi sudga ekspert xulosasining ishonchliligini yanada toʻliq va xolis baholash imkonini beradi.

**Xulosa**

Jinoyat protsessida ekspertiza instituti sud qarorlarining ilmiy asoslanganligi va adolatliligini ta’minlashda muhim vosita hisoblanadi. Turli huquqiy tizimlarda ushbu institutga nisbatan yondashuvlar bir-biridan farqlanadi. Xususan, anglo-sakson huquq tizimida tortishuvli ekspertiza (adversarial expertise) modeli qoʻllanilib, himoya tomonga mustaqil ekspertni jalb qilish va muqobil ekspert xulosasini taqdim etish imkoniyati beriladi. Kontinent huquq tizimida esa ekspertizani tayinlash va oʻtkazish asosan davlatning organlariga tegishlidir.

Nazorat ostidagi ekspertiza (controlled expertise) instituti kontinent modelning asosiy xususiyatlarini saqlab qolgan holda himoya tomonga qoʻshimcha protsessual imkoniyatlar yaratishga qaratilgan. Mazkur yondashuv ayblanuvchining amaldagi noqulay protsessual holatini yumshatishga, ekspert xulosasining ilmiy asoslanganligi va ishonchliligini oshirishga hamda sudga qaror qabul qilish jarayonida qoʻshimcha nazorat mexanizmini taqdim etishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, ekspertiza institutining har bir modeli oʻziga xos afzallik va kamchiliklarga ega. Tortishuvli ekspertiza ekspertlar oʻrtasida ilmiy munozarani rivojlantirish, ekspert xulosalarining asoslanganligini tekshirish imkonini bersa-da, ekspertlarning tarafkashligi hamda sud tomonidan qarama-qarshi xulosalarni baholashdagi murakkabliklar bilan tavsiflanadi. Kontinent ekspertiza esa ekspertning betarafligi va mustaqilligini ta’minlashga xizmat qiladi. Biroq yagona ekspert xulosasining amaliyotda haddan tashqari katta ahamiyat kasb etishi va taraflarning uning mazmuniga ta’sir koʻrsatish imkoniyatlarining cheklanganligi bilan izohlanadi.

Maqolada tahlil qilingan nazariy qarashlar va xorijiy tajriba asosida ekspertiza institutini takomillashtirish, xususan, himoya tomonga qoʻshimcha protsessual huquqlar berish orqali jinoyat protsessida ekspertiza sifatini oshirish hamda sud qarorlarining ishonchliligini kuchaytirish mumkinligi toʻgʻrisida xulosa qilindi. Shu nuqtayi nazardan, nazorat ostidagi ekspertiza instituti ilmiy asoslanganlik, protsessual adolat va taraflarning tengligi tamoyillarini uygʻunlashtiruvchi samarali mexanizm sifatida e’tirof etilishi mumkin. Mazkur institutning joriy etilishi jinoyat sudlovini yanada adolatli, shaffof va ishonchli tashkil etishga xizmat qiladi.

## REFERENCES

Averyanova, T. V., & Statkus, V. F. (Eds.). (2011). *Prakticheskoe rukovodstvo po proizvodstvu sudebnykh ekspertiz dlya ekspertov i spetsialistov [A practical guide to the production of judicial expertise for experts and specialists].* Yurayt.

Downes, G. (2005). *Expert evidence: The value of single or court-appointed experts*. http://www.aija.org.au/info/expert/Downes.pdf

Edmond, G. (2010). Impartiality, efficiency or reliability? A critical response to expert evidence law and procedure in Australia. *Australian Journal of Forensic Sciences*, *42*(2), 87–99. https://doi.org/10.1080/00450610903337968


E-ISSN 2181-1148
ISSN 2181-919X

Federal Rules of Evidence, Fed. R. Evid. 706(a). (2011). http://judiciary.house.gov/hearings/printers/112th/evidence2011.pdf

Golovko, L. V. (2009). *Materialy k postroyeniyu sravnitelnogo ugolovno-protsessualnogo prava: istochniki, dokazatelstva, predvaritelnoe proizvodstvo [Materials for the construction of comparative criminal procedural law: sources, evidence, preliminary proceedings].* Proceedings of the Faculty of Law of Lomonosov Moscow State University.

Law Commission. (2011). *Expert evidence in criminal proceedings in England and Wales (Law Com No. 325; HC 829).* http://www.official-documents.gov.uk/document/hc1011/hc08/0829/0829.pdf

Meintjes-van der Walt, L. (2001). *Expert evidence in the criminal justice process: A comparative perspective*. IOS Press.

Pradel, J. (2008). *Droit pénal comparé*. Dalloz.

Rares, S. (2010, August 23). *Using the "hot tub"? How concurrent expert evidence aids understanding issues*. Federal Court of Australia. http://www.fedcourt.gov.au/aboutct/judges_papers/speeches_raresj12.html

Rassat, M.-L. (1993). *Forensic expertise and the law of evidence in France.* In G. F. Nijboer, C. R. Callen, & N. Kwak (Eds.), *Forensic expertise and the law of evidence (pp. 58–60).* Kluwer Academic Publishers.

Redmayne, M. (2001). *Expert evidence and criminal justice*. Oxford University Press.

Republic of France. (2006). *Code de procédure pénale [Code of Criminal Procedure].* https://www.legifrance.gouv.fr/affichCode.do?cidTexte=LEGITEXT000006071154

Rossinskaya, E. R., & Galyashina, E. I. (2011). *Nastolnaya kniga sudi: sudebnaya ekspertiza [Judge's handbook: judicial expertise].* Prospekt.

Rousseau, G., & Fontbressin, P. de. (2008). *L'expert et l'expertise judiciaire en France: Théorie–pratique–formation [The expert and judicial expertise in France: Theory–practice–training]*. Bruylant.

Spencer, J. R. (2004). *Evidence.* In M. Delmas-Marty & J. R. Spencer (Eds.), *European criminal procedures (pp. 632–635).* Cambridge University Press.

Vladimirov, L. E. (1910). *Ucheniye ob ugolovnykh dokazatelstvakh [The doctrine of criminal evidence].* Book Publishing House Vestnik Prava.

Volk, K. (1993). *Forensic expertise and the law of evidence in Germany (criminal cases).* In G. F. Nijboer, C. R. Callen, & N. Kwak (Eds.), *Forensic expertise and the law of evidence (p. 45).* Kluwer Academic Publishers.

# YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
# ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
# REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

**2026-yil 2-son**

VOLUME 10 / ISSUE 2 / 2026

DOI: HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.ROLS.2026.10.2.